

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

YOSHLAR ONGIGA DESTRUKTIV G'OYALARNING TA'SIRI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universiteti
Katta o'qituvchisi Madraximov Vaisbay Baxtiyarovich**

Аннотация: В статье научно обоснованно анализируется влияние деструктивных идей на сознание молодежи, механизмы их формирования и возможные последствия. В исследовании показано, что подобные идеи проникают в сознание молодежи через информационное пространство, психологические факторы, социально-экономические трудности и давление сверстников. Также раскрыты последствия деструктивной идеологии, такие как ослабление национальной идентичности, усиление радикальных настроений в обществе, углубление личностных кризисов и рост миграционных рисков. Подчеркивается значение формирования духовного иммунитета, развития сотрудничества социальных институтов, обеспечения информационной безопасности и психологической поддержки в защите молодежи от разрушительных идей.

Ключевые слова: молодежь, деструктивные идеи, национальная идентичность, радикализм, социальная нестабильность, психологический кризис, миграция, духовный иммунитет, информационная безопасность, социальные институты.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the impact of destructive ideas on youth consciousness, the mechanisms of their formation, and their possible consequences. The study demonstrates that such ideas infiltrate youth consciousness through the information space, psychological factors, socio-economic challenges, and peer pressure. The article highlights the consequences of destructive ideology, including the weakening of national identity, the rise of radical sentiments in society, the deepening of personal crises, and an increased risk of migration. The author emphasizes the importance of strengthening spiritual immunity, enhancing cooperation among social institutions, ensuring information security, and providing psychological support in protecting youth from destructive ideas.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

Keywords: youth, destructive ideas, national identity, radicalism, social instability, psychological crisis, migration, spiritual immunity, information security, social institutions

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ongiga destruktiv g'oyalarning ta'siri, ularning shakllanish mexanizmlari va oqibatlari keng tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bunday g'oyalar yoshlar ongiga, asosan, axborot makoni, psixologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va tengdoshlar bosimi orqali kirib borishi aniqlangan. Shuningdek, destruktiv mafkuraning milliy o'zlikni zaiflashtirish, jamiyatda radikal kayfiyatni kuchaytirish, shaxsiy inqirozlarni chuqurlashtirish hamda migratsiya xavfini oshirish kabi oqibatlari ilmiy asoslangan holda yoritib berilgan. Muallif yoshlarni bunday g'oyalardan himoya qilishda ma'naviy immunitetni shakllantirish, ijtimoiy institutlar hamkorligini kuchaytirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatib o'tadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, destruktiv g'oyalar, milliy o'zlik, radikalizm, ijtimoiy beqarorlik, psixologik inqiroz, migratsiya, ma'naviy immunitet, axborot xavfsizligi, ijtimoiy institutlar

Bugungi globallashuv davrida jamiyatning barqaror rivojlanishida yoshlar salohiyati hal qiluvchi o'rin tutadi¹. Chunki yoshlar — davlatning intellektual, ijtimoiy va iqtisodiy kelajagini belgilab beruvchi eng faol qatlamdir. Shu bois ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligi masalasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ammo zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining cheksiz imkoniyatlari bilan birga, turli xil destruktiv, ya'ni buzg'unchi g'oyalarning ham tez va keng tarqalishiga yo'l ochib bermoqda.

Psixologlar va sotsiologlarning ta'kidlashicha, yoshlar ongining shakllanish davrida ularning tashqi ta'sirlarga nisbatan sezuvchanligi yuqori bo'ladi². Shu sababli turli radikal oqimlar, ekstremistik mafkuralar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchi kontent va iste'molchilik ruhidagi buzg'unchi g'oyalar aynan yoshlarga tezroq singishi mumkin. Natijada, yoshlar o'z milliy qadriyatlaridan uzoqlashishi, jamiyatdan begonalashishi, hatto radikal oqimlarga qo'shilishi xavfi ortadi.

¹ Sh. Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent, 2021, 56–57-bet. UNESCO. *Youth Development Report*. Paris, 2018, p. 12.

² Erikson E. *Identity: Youth and Crisis*. New York: W. W. Norton, 1968, p. 128.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

Shu nuqtai nazardan, yoshlarni destruktiv g'oyalardan asrash, ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ijtimoiy institutlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini kuchaytirish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Destruktiv g'oyalar mohiyati va ularning turlari

Destruktiv g'oya — shaxs va jamiyatning barqaror rivojlanishiga qarshi qaratilgan, qadriyatlarni yemirishga xizmat qiluvchi mafkuraviy oqimlar majmuasidir³. Ular quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Radikal diniy oqimlar — diniy aqidalarni noto'g'ri talqin qilib, yoshlarni jamiyatdan ajratishga, zo'ravonlikka undashga xizmat qiladi.
2. Millatlararo va konfessional adovat — milliy o'zlikni yemirish va ijtimoiy barqarorlikni buzishga qaratilgan g'oyalar.
3. Zo'ravonlik va terrorchilik targ'iboti — kuch ishlatish, agressiyani normal holat sifatida ko'rsatish.
4. Axloqiy-insoniy qadriyatlarni yemiruvchi oqimlar — pornografiya, narkomaniya, iste'molchilik madaniyatini mutlaq qadriyat sifatida ko'rsatish.
5. Individualizm va begonalashuv — jamiyat manfaatlaridan ko'ra shaxsiy manfaatlarini ustuvor qo'yish.

Mazkur g'oyalar, asosan, ijtimoiy tarmoqlar, internetdagi manipulyativ kontentlar, ommaviy madaniyat mahsulotlari hamda ayrim guruhlarining bosimi orqali yoshlar ongiga singdiriladi.

Yoshlar ongiga ta'sir mexanizmlari

Destruktiv g'oyalarning yoshlar ongiga ta'sir mexanizmlarini bir nechta asosiy yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

1. **Axborot muhitidagi manipulyatsiya**
 - o Ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli reklama, "fake news", manipulyativ videolar orqali yoshlarning e'tiborini tortish.
 - o "Rol model" sifatida radikal shaxslarni ideal tarzda ko'rsatish.
2. **Psixologik omillar**
 - o O'z-o'zini anglash jarayonidagi bo'shliqlar, yolg'izlik, o'zini jamiyatda topa olmaslik hissi.

³ Huntington S. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster, 1996, p. 72.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

○ O'smirlik davrida identifikatsiya muammolari tufayli begona g'oyalarga tez berilish.

3. **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar**

- Ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik.
- Davlat va jamiyat institutlariga ishonchsizlikning kuchayishi.

4. **Tengdoshlar bosimi**

○ Guruhiy ta'sir, "peer pressure" mexanizmi orqali yoshlar o'z qarashlarini o'zgartirishga majbur bo'lishi.

Destruktiv g'oyalarning oqibatlari

Yoshlar ongiga singdirilgan destruktiv g'oyalar shaxs, jamiyat va davlat hayotining turli sohalarida chuqur iz qoldiradi. Ularning oqibatlarini quyidagi yo'nalishlarda ilmiy jihatdan asoslab tahlil qilish mumkin:

1. Milliy o'zlikni zaiflashtirish va begonalashuv

Milliy o'zlik — jamiyatni birlashtiruvchi tarixiy xotira, til, madaniyat va qadriyatlardan iborat murakkab tizimdir. Destruktiv g'oyalar esa aynan shu asoslarni yemirishga qaratilgan.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra (Z. Bauman, 2000; A. Toffler, 1991), global iste'molchilik madaniyati kuchaygan sharoitda yoshlar o'z milliy ildizlaridan uzoqlashishi, "madaniy nomadizm" (ko'chmanchilik) holatiga tushishi kuzatiladi⁴. Bu esa:

milliy qadriyatlarga befarqlikni kuchaytiradi;

o'z jamiyatiga nisbatan "begona"lik hissini shakllantiradi;

identifikatsiya (o'zini bir guruhga mansub his qilish) jarayonida bo'shliq yuzaga keltiradi.

Natijada yoshlarning ma'naviy mustahkamligi zaiflashib, ular turli g'oyaviy oqimlarga tez taslim bo'lishi mumkin.

2. Ijtimoiy beqarorlik va radikal kayfiyat

Destruktiv g'oyalar jamiyatda barqarorlikni buzuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiologik nazariyalarga ko'ra (Ch. Tilly, 2003; R. Collins, 2012), ijtimoiy

⁴ Z. *Liquid Modernity*. Cambridge: Polity Press, 2000, p. 83. Toffler A. *Powershift*. New York: Bantam Books, 1991, p. 214.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

inqirozlarning ko‘pi aynan yoshlar qatlamida radikal kayfiyatlarning kuchayishi orqali yuzaga keladi⁵. Bu jarayon quyidagilarda ko‘rinadi:

zo‘ravonlikni muqaddaslashtirish, ya‘ni agressiyani muammo yechimining “tabiiy” shakli sifatida ko‘rsatish;

jamiyatga qarshi chiqishni “qahramonlik” sifatida talqin etish;

norozilik kayfiyatlarining keskinlashtirilishi.

Shu bilan birga, destruktiv mafkura yoshlarni kollektiv agressiya harakatlariga jalb etib, ekstremistik faoliyatning kengayishiga sabab bo‘ladi.

3. Shaxsiy inqirozlar va psixologik buzilishlar

Psixologik nuqtai nazardan (E. Eriksonning identifikatsiya nazariyasi, 1968), o‘smirlik va yoshlik davri shaxsning “kimman men?” degan savolga javob izlaydigan davridir⁶. Agar bu davrda konstruktiv qadriyatlar emas, balki buzg‘unchi g‘oyalar singdirilsa:

depressiya, o‘zini jamiyatda keraksiz his qilish;

ma‘naviy bo‘shliq, hayot mazmunini yo‘qotish;

tajovuzkorlik va autodestruktiv xulq (spirtli ichimlik, giyohvandlik, suitsid xavfi) kuchayadi.

Tadqiqotlar (WHO, 2022) ko‘rsatadiki, yoshlar orasida suitsid va depressiv holatlar ko‘payishida ijtimoiy tarmoqlardagi zararli axborot oqimlari ham muhim rol o‘ynamoqda.

4. Migratsiya va tashqi muhitga intilish

Yoshlar ongida destruktiv g‘oyalar qaror topgan sharoitda o‘z yurtidan ko‘ngil sovish, ijtimoiy tizimni inkor etish holatlari ortadi. Natijada:

tashqi muhitni “ideal jamiyat” sifatida qabul qilish;

iqtisodiy, siyosiy yoki diniy sabablar bilan noqonuniy migratsiya oqimiga qo‘shilish;

diasporalar ichida radikal guruhlariga qo‘shilish xavfi kuchayadi.

Migratsiya jarayonining o‘zi ijobiy imkoniyatlar bilan birga xavf ham tug‘diradi: yoshlarning o‘z jamiyatidan begonalashuvi, tashqi muhitda assimilyatsiya bo‘lishi yoki radikal guruhlariga qo‘shilib ketishi ehtimoli oshadi (Castles & Miller, 2009).

⁵Tilly C. *The Politics of Collective Violence*. Cambridge: Cambridge Univ. Press, 2003, p. 41.

⁶Erikson E. *Identity: Youth and Crisis*. New York: W. W. Norton, 1968, p. 165–170.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

Shunday qilib, destruktiv g‘oyalarning oqibatlarini nafaqat shaxsiy psixologik buzilishlar, balki milliy o‘zlikni zaiflashtirish, jamiyatda beqarorlikni kuchaytirish va yoshlarning migratsion oqimlarda beqaror elementga aylanishi kabi keng ko‘lamli ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, bunday g‘oyalarga qarshi kurashish — bu nafaqat axloqiy, balki strategik ijtimoiy xavfsizlik masalasidir.

Qarshi mexanizmlar va bartaraf etish yo‘llari

Yoshlarni destruktiv g‘oyalardan himoya qilish keng qamrovli va tizimli yondashuvni talab qiladi.

1. Ma’naviy immunitetni shakllantirish

Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, buyuk ajdodlar merosini yoshlar ongiga singdirish.

Vatanparvarlik ruhidagi ta’lim-tarbiyani kuchaytirish.

2. Ijtimoiy institutlar faoliyatini kuchaytirish

Oila, ta’lim muassasalari, diniy tashkilotlar va Yoshlar Ittifoqining hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va madaniyat to‘garaklarini kengaytirish.

3. Axborot xavfsizligi siyosati

Internetda zararli kontentga qarshi monitoring va filtrlash tizimlari.

Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy kontentni ko‘paytirish, yoshlar uchun qiziqarli formatlarda taqdim etish.

4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash

Yoshlar uchun bepul maslahat markazlari, “helpline” xizmatlari tashkil etish.

Stress, depressiya va inqiroz holatlarini bartaraf etishga qaratilgan dasturlar.

5. Ijobiy liderlar va “rol model”lar

Yoshlarning qahramonlari sifatida ijobiy shaxslarni targ‘ib qilish.

Sportchilar, san’atkorlar, olimlar va harbiylarning faoliyati orqali konstruktiv qadriyatlarni singdirish.

Ilmiy-amaliy takliflar

- Yoshlar orasida destruktiv g‘oyalarning tarqalish omillarini muntazam monitoring qilish.

- Ta’lim tizimida “Axborot savodxonligi” fanini kengaytirish.

- Yoshlar o‘rtasida “virtual immunitet”ni shakllantiruvchi treninglar tashkil etish.

O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentabr-2025

• Davlat siyosatida yoshlar manfaatlarini ustuvor qo‘yuvchi ijtimoiy dasturlarni kengaytirish.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ongiga destruktiv g‘oyalarning singdirilishi shaxsiy, ijtimoiy va milliy miqyosda jiddiy oqibatlarga olib keladi. Avvalo, ular milliy o‘zlikni zaiflashtirib, tarixiy xotira va qadriyatlarga befarqlikni kuchaytiradi, natijada yoshlar jamiyatdan begonalashadi. Shu bilan birga, destruktiv mafkuralar jamiyatda radikal kayfiyatni keskinlashtirib, zo‘ravonlik va kollektiv agressiyani “qahramonlik” sifatida talqin etishga yo‘l ochadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikka xavf tug‘diradi.

Psixologik jihatdan bunday g‘oyalar yoshlarni chuqur inqirozlarga olib boradi: depressiya, ma‘naviy bo‘shliq, suitsid xavfi va autodestruktiv xulqning kuchayishi kuzatiladi. Shuningdek, o‘z jamiyatiga ishonch susaygani sari yoshlar orasida tashqi muhitni “ideal” sifatida qabul qilish, noqonuniy migratsiya yoki chet ellardagi radikal guruhlarga qo‘shilish xavfi ortadi.

Shu bois, yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish faqat ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar emas, balki milliy xavfsizlik strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Bunda oilaning tarbiyaviy kuchi, ta‘lim tizimining ma‘naviy yo‘nalishi, axborot makonining sog‘lomlashtirilishi va yoshlarning psixologik qo‘llab-quvvatlanishi muhim omil hisoblanadi. Faqat shunday kompleks yondashuv orqaligina yoshlarning g‘oyaviy immuniteti mustahkamlanib, ularning ijtimoiy faolligi va milliy o‘zlikni anglash darajasi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. **Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 174 b. (45–46-bet).
2. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 368 b. (56–57-bet).
3. Erikson E. **Identity: Youth and Crisis.** – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p. (165–170-bet).
4. Parsons T. **The Social System.** – London: Routledge & Kegan Paul, 1991. – 575 p. (54-bet).
5. Toffler A. **Powershift: Knowledge, Wealth, and Violence at the Edge of the 21st Century.** – New York: Bantam Books, 1991. – 585 p. (214-bet).

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentabr-2025**

6. Bauman Z. **Liquid Modernity**. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p. (83-bet).
7. Huntington S. **The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order**. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p. (72-bet).
8. Tilly C. **The Politics of Collective Violence**. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 268 p. (41-bet).
9. Collins R. **Violence: A Micro-sociological Theory**. – Princeton: Princeton University Press, 2008. – 584 p. (115-bet).
10. Castles S., Miller M.J. **The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World**. 4th ed. – New York: Guilford Press, 2009. – 401 p. (92-bet).
11. World Health Organization. **World Mental Health Report: Transforming Mental Health for All**. – Geneva: WHO, 2022. – 294 p. (87-bet).
12. UNESCO. **Youth Development Report**. – Paris: UNESCO Publishing, 2018. – 210 p. (12-bet).